

бўлганида – табиийки, яна ҳам кўп – 98,4%; 1:6 бўлганида деярли ҳосил олинмаган. Бунинг натижасида садок ичидаги ўсимликлар “енгиллашиб” тепага қараб ўсиб кетди.

Таққослаш учун беда қандаласини олсак. Бу ҳашарот кечроқ пайдо бўлгани сабабли, уни даладан териб келиб, садокларга 15-нчи июнда қўйдик.

Олиб борилган тадқиқотлардан хулоса қилишимиз мумкинки, беда қандаласининг ғўзага етказадиган зарари ғўза қандаласига нисбатан 2-3 баробар паст (1:1 бўлганида – 3 марта; 1:3 бўлганида эса – 2 марта). Ғўза қандаланинг ғўзага етказадиган зарарини ҳашарот ўсимлиқни зарарлаш муддатларига боғлиқ эканлигини аниқлаш учун, бошқа 3 та садокда ўсиб турган ғўзага бу ҳашаротни кейинги муддатларда, яъни 1-нчи ва 10-нчи июл кунлари тарқатдик. Тажрибаларда июл ойининг бошида ўсимликлар ғўза қандаласи

билан 1:1 нисбатда зарарланса ва у мавсум охиригача шу ўсимликда яшаса, ҳосилдорлик назоратга нисбатан 62,8 % га камайар экан; 1:3 бўлганида – 79,5 %; 1:6 бўлса – 93,0 %. Яна ҳам кечроқ зарарланган ғўзада (10.07) ҳам ғўза анчагина ҳосил йўқотган бўлса ҳам, у фарқ қилади. Мисол учун, 1:0,5 қилиб озайтириб олинган ғўзада (100 та ғўзага 50 та қандала тўғри келади) назоратга нисбатан ҳосил 12,5% га камайиши кузатилди.

Умуман олганда зарарли организмларга қарши курашда энг мақбул муддатни белгилаш, муайян тур зараркунанданинг зарарлилик даражасини аниқлаш муҳим ҳисобланади. Шундай экан юқоридаги тадқиқот натижалари асосида ҳар бир тур ўсимликхўр қандалаларнинг сони қанча бўлганда ҳосилдорликка зарарини баҳолаб кураш тадбир ва муддатларини хулоса қилиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Хўжаев Ш.Т., Саттаров Н.Р., Мусаев Д.М. Зарарли қандала ҳашаротлар ҳақида нималарни билмоқ керак. Илмий-оммабоп очерк. – Тошкент, 2018. – 64 б.
2. Alvarado, M., Duran, J. M., Serrano, A., de la Rosa, A. & Ortiz, E. Contribution al conocimiento de las chinches (Heteroptera) fitofagas del algodón en Andalucía Occidental. —Boletinde sanidad vegetal, Plagas, 1998: 24(4): 817-828.
3. Wheeler, A. G. Jr., 2001. Biology of the Plant Bugs (Hemiptera: Miridae): Pests, Predators, Opportunists. Cornell University Press, Ithaca, NY. – 2001. – 507 p.
4. Efil, L. & A. ilkan, 2003. “Determination of population alteration of harmful insect Creontia despallidus Rmb. (Hemiptera: Miridae) in cotton in Harran Plain, 395-397”. Proceeding of Third GAP Agriculture Congress (2-3 October 2003, Şanlıurfa, Turkey). – 686 pp.
5. Lu, Y. H., Qiu, F., Feng, H. Q., Li, H. B., Yang, Z. C., Wyckhuys, K. A. G. and Wu, K. M., Species composition and seasonal abundance of pestiferous plant bugs (Hemiptera: Miridae) on Bt Cotton in China. Crop Protec.,27(3/5). –P.465-472.
6. Nakash, J., Hameiri, R. and Bitton, S., 1989, Biology and chemical control of the cotton shedder bug Creontiadespallidus (Rambur), Hassadeh, 69 (8). – P. 1400.
7. Stam, P. A., 1987, Creontiadespallidus (Rambur) (Miridae: Hemiptera) a pest of cotton along the Euphrates river and its effect on yield and control action threshold in the Syrian Arab republic. Trop. Pest Manag.,33(4). – P. 273-276.

UO'T: 632.7

ARPA MAYDONLARIDA SHIRALAR FAUNASI VA ZARARI

Nosirov Baxtiyor Salohiddinovich, қ.х.ф.д., профессор,
Ro'ziqulov Davlatbek Nazaralievich, katta o'qituvchi,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada shiralarning (Aphididae) bir necha turlari respublikamiz arpazorlarida keng tarqalgan turlari va bu shiralarning bioekologiyasi, tur tarkibi, turlarining tarqalish areali, ularning jiddiy zarar keltirish darajasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Arpa, zararkunanda, shira, qishloq xo'jaligi, boshqoli don.

KIRISH: Dunyo boshqoli don ekinlariga 300 turdan ortiq hasharotlar zarar keltirsa, shundan 30 turdan ortiqrog'i ashaddiy zararkunandalar hisoblanadi. Bu zararkunandalar yetishtirilgan hosilning o'rtacha 15-20 % ini, ularning rivojlanib ko'payishi uchun iqlim sharoit qulay kelgan ayrim yillari esa 45-50 % gacha hosilni yo'qotadi. Bundan tashqari yetishtirilgan donning sifati yomonlashib, oziq-ovqat uchun mutloqo yaroqsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Arpaning asosiy so'ruvchi zararkunandalari esa har yili surunkasiga rivojlanib, boshqoli don ekinlariga jiddiy iqtisodiy zarar yetkazmoqda, bu esa o'z navbatida hosildorlikka va don sifatiga salbiy ta'sir etadi. Zararkunandalarga qarshi kurashmasdan turib boshqoli don ekinlaridan yuqori va sifatli hosildorlikka erishib bo'lmaydi

Dunyo qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan boshqoli don ekinlarida so'ruvchi zararkunanda hasharotlarning zichligi va zarari oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu

hasharotlar boshqoli don ekinlarining eng xavfli va keng tarqalgan zararkunandalaridan hisoblanadi. Shunga ko'ra arpaning asosiy so'ruvchi zararkunandalarga qarshi eng qulay, ekologik sof va samarali usullardan biri – chidamli arpa navlarini aniqlash va rayonlashtirishdan iborat. Shuning uchun boshqoli don ekinlarining so'ruvchi zararkunanda hasharotlariga nisbatan chidamli arpa navlarini aniqlash muammosi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamiz sharoitida boshqoli don ekinlaridan olinadigan hosilga bo'lgan talabni qondirishda bir qancha keng ko'lamli chora – tadbirlar amalga oshirildi. Boshqoli don ekinlari asosiy so'ruvchi zararkunandalarga qarshi nisbatan chidamli navlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida boshqoli don ekinlaridan olinadigan hosildorlikni saqlab qolish imkoniyatini yaratadi. Chidamli navlar asosida so'ruvchi zararkunandalardan himoya qilish tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston aholisini don va don mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun yuqori sifatli, zararkunanda va kasalliklarga chidamli urug'lik tizimini tashkil etish, boshqoqli don ekinlarini yuqori agrotexnika asosida parvarish qilish, o'g'itlash va sug'orish ishlarini o'z vaqtida o'tkazish bilan bir qatorda g'alla ekinlariga zarar keltiruvchi zararli organizmlarga qarshi kurash chora-tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Arpaga zarar yetkazadigan suruvchi zararkunandalari orasida shiralar, tripslar va zararli xasvalar - katta zarar etkazadi. Bular o'ziga xos hasharotlar guruhiga mansub bo'lib, ushbu zararkunandalar zarari natijada voqtda kurash chorasini olib borilmasa, ba'zi hollarda hosilning katta qismi yuqolishiga olib kelishi ham mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlariga zararkunandalarning ko'plab tushishi hosildorlikni va uning sifatini keskin pasayishiga olib keladi.

Arpa un va non yetishtirishdagi tabiiy maxsulot hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlardagi arpa axoli oziq-ovqatining asosini tashkil qiladi.

Chidamli navlar qishloq xo'jaligi ekinlarini hasharotlardan himoya qiluvchi asosiy vosita hisoblanib, ular hasharotlar soni va miqdoriga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Chidamli navlar hasharotlarning nasl qoldirish xususiyatini ham chegaralab turadi. Shiralarning boshqoqli don ekinlariga keltiradigan zararining ko'p yoki kam bo'lishi shu ekinlarning shiralarga chidamliligiga ham bog'liq. Shiralar asosan boshqoqlarning yuqori yarmini ko'proq zararlaydi. Bahorda ekilgan g'alla boshqoqlarida esa havoning nisbiy namligi yuqori bo'lganda shiralar boshqoqning qiltirlarida oziqlansa, namlik kam hududlarda shiralar arpaning gullari ichigacha kirib boradi va ularning hosilini yo'qotadi.

Arpazorlarning shiralar bilan zararlanishi oqibatida yo'qotiladigan hosil miqdori ekin maydonidagi o'simliklarning zichligiga ham bog'liqdir. Har bir metr kvadrat g'allazorda 300 tup arpa bo'lsa va har bir boshqoqli o'rtacha 10 donadan shira zararlaganda yo'qotilgan hosil miqdori 1m² da 15 gr yoki 1,5 s/ga bo'lishi aniqlangan.

Boshqoqli don ekinlarida g'alla shiralari ekinlarni 50 % zararlaganda arpa nay tortish fazasiga kirganda bir poyaga 8-10 dona, sut pishish fazasida esa bir poyaga 25-30 dona shira to'g'ri kelsa iqtisodiy zarar mezonini bo'ladi.

Sh.T.Xodjaev, A.A.Xakimov (1991) lar ko'rsatishicha shiralarning zarar keltirish darajasi ekinlarning qaysi fazasida zararlanganligiga bog'liq. O'simlik shiralar bilan qancha kech zararlangansa, yo'qotilgan hosil ham shuncha kam bo'ladi. Boshqoqli don ekinlarining g'alla shiralari ta'sirida nobud bo'ladigan hosil miqdori zararkunandaning ekinga tushish vaqtiga qarab turlicha bo'ladi, ya'ni g'alla ekinlari shiralar bilan qanchalik erta zararlangansa va ular soni qanchalik zich bo'lsa hosil shunchalik ko'p nobud bo'ladi.

Katta g'alla shirasi Rossiya sharoitida tuxumlik fazasida qishlaydi. Respublikamizning janubiy hududlarida bu zararkunanda ko'proq urg'ochi partenogenetik yetuk zoti hoida qishlashini, shimoliy hududlarida tuxumlik va urg'ochi partenogenetik yetuk zoti fazalarida qishlab chiqishini aniqlagan.

Xulosa. Shiralar tarqalgan arpazorlarni nazorat qilish shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib o'tkazish, xususan qator oralariga ishlov berish, kuzgi yer xaydovini sifatli qilib, o'tkazish, yaxob suvlarini berish, meneral va maxalliy o'g'itlardan samarali foydalanish, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlarini yo'qotish ham zarur tadbirlardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Alimuxamedov S.S., Xayitov E.I. G'alla shiralari va ularga qarshi samarali kurash usullari/ O'zbekistonda bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2004.- B.
2. Po'latov Z., Xayitov E. Boshqoqli don ekinlaridagi shiralarga qarshi kimyoviy dorilarning ta'siri// O'simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan ximoya qilishning rivojlanish istiqbollari Imiy- amaliy konf. ma'ruzalarining tyozislari. - Toshkent, 2001. - B. 46-47.
3. Xo'jaev Sh.T., Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2014.
4. Xalilov K. va b. G'alla, paxta, sabzavot, poliz, bog' ekinlari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash usullari. – Toshkent: Fan, 2007.

УЎТ: 632.7.

БУҒДОЙ ТРИПСИНИНГ ТАРҚАЛИШИ, ЗАРАРИ ВА БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Содиқова Нигора Азамжоновна, магистрант,
Аблазова Мохичеҳра Миракбаровна, қ.х.ф.ф.д., доцент,
Рўзиқулов Давлатбек Назаралиевич, катта ўқитувчиси,
Тошкент давлат аграр университети.

Аннотация: Мазкур мақолада трипсларнинг (*Thysanoptera*) бир неча турлари республикамиз галлазорларида кенг тарқалган турлари ва бу трипсларнинг биоэкологияси, тур таркиби, турларининг тарқалиш ареаллари, уларнинг жиддий зарар келтириши даражаси келтирилган.

Калит сўзлар: галла, зараркунанда, трипс, дон, сўрувчи, ўсимлик.

КИРИШ: Ғаллачиликда етиштирилаётган ҳосилнинг бир қисми зараркунандалар таъсирида йўқотилмоқда. Тошкент, Хоразм, Қорақалпоғистон республикаси ва Фарғона водийсининг бир қатор вилоятларида ғалланинг зараркунандалари ҳосилга зарар етказётганлиги кузатилмоқда. Бугунги кунда

бу йўналишдаги олиб бориладиган илмий тадқиқот ишлари ўта долзарб ҳисобланади.

Республикамиз шароитида ғаланинг асосий зараркунандалари тур таркиби, биологик хусусиятлари, паразит энтомофаглари, биоэкологияси ва зараркунандалар сонини